



2019 yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1673,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi – **100,5 % ni** tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **2012,7 ming.so`mni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **112,9 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **27,7 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **556,9 ming.so`mga** to`gri keldi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **34,0 %**


2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1673,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 100,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 3,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 8,0 % ga o'sishi hisoblandi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



2019 yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hissasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 93,2 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 771,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 51,0 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Hususan 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish indeksi 152,7 % ni, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 118,3 % ni, asosiy farmaseftika mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 104,9 % ni hamda teri va charm mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 104,2 % ni tashkil etgani kuzatildi.










Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,9 % ni (2018 yilning yanvar-mart oylarida - 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,2 % (5,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 8,3 % (7,6%) va quyi texnologiyali - 81,7 % (82,5 %) tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar-mart oyrida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvar-martiga nisbatan, %
185,1	Sellyuloza, ming kg 90% 	413,8	223,6
8,9	Un, ming tonna 	9,7	108,7
410	Ho`jalik sovuni tona 	340	82,9
1166,1	Kalava ip, tonna 	942,0	80,8
21,2	Paxta tolasi. ming tonna 	13,7	64,6
33,7	Paxta urug'i, ming tonna 	21,4	63,5
15,6	Kunjara, ming tonna 	11,4	73,1
3,3	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna 	1,8	53,7
300,7	Aroq – mig litr 100 % spirt 	70,6	23,5

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 852,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 51,0 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 108,0 % ga oshganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 108,4 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 92,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
4554,0	<p>Elektroenergiya, mln kVt/s</p>	4795,2	105,3
29,2	<p>Issiqlik energiyasi, mln Gkal</p>	29,9	102,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan hajm indeksleri shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar 20,1 % ga hamda oqova suvlar xizmatlari 0,4 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda

2036,1



1977,9

97,1

Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda

666,0




1547,7

232,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 463,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 12,9 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 27,7 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 54,8 % dan 2019 yilning yanvar-mart oylarida 58,9 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,1 % ni (2018 yilning yanvar-mart oylarida 6,5 %) tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 807,5 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 48,3 % ulushini), Sirdaryo tumani 258,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,5 % ulushini), Guliston shahri 186,1 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 11,1 % ulushini), Boyovut 111,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,6 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Xovos tumani 30,2 mlrd so'm (1,8 %), Guliston tumani 27,9 mlrd so'm (1,7 %) va Sardoba tumani 17,4 mlrd so'm (1,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2012,7 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 43649,1 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 134,2%, Xovos tumanida 115,4 % hamda Oqoltin tumanida 108,5 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Sayhunobod tumanida 89,3% va Sardoba tumanida 33,0% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 568,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 34,0 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 104,4 foizni tashkil qilgan.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23